



## NUTQ MADANIYATI VA UNI O‘QITISH MUAMMOLARI NIZOMIDDIN MAHMUDOV TALQINIDA

**Boshmanova Dildora Maxram qizi**

*Qo‘qon davlat universiteti filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Gmail: [dildoraboshmanova8@gmail.com](mailto:dildoraboshmanova8@gmail.com)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada hozirgi o‘zbek tilshunosligining yetakchi tilshunos olimlaridan biri professor Nizomiddin Mahmudovning o‘zbek tilshunosligi taraqqiyoti rivojiga qo‘shgan beqiyos hissasi, nutq madaniyati va uni o‘qitish muammolari, nutq va uning turlari, nutqiy faoliyat, shuningdek, nutqiy ko‘nikma to‘g‘risida so‘z yuritilgan va maqolada keltirib o‘tilgan mulohazalarga xulosalar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** til, lug‘at, muloqot, nutq, nutq madaniyati, nutqiy ko‘nikma, lingvistika.

**Abstract.** This article discusses the invaluable contribution of one of the leading linguists of modern Uzbek linguistics, Professor Nizomiddin Mahmudov, to the development of Uzbek linguistics, the problems of speech culture and its teaching, speech and its types, speech activity, as well as speech skills, and provides conclusions on the considerations presented in the article.

**Keywords:** language, vocabulary, communication, speech, speech culture, speech skills, linguistics.

O‘tgan asrning 60-yillaridan boshlab o‘zbek tilshunosligida nutq madaniyatiga aloqador tadqiqotlar yuzaga kela boshladi. Nutq madaniyatiga qiziqishning ortishi natijasida uning ilmiy nazariy asoslarini ishlab chiqish, notiqlik san‘ati kabi masalalarni ko‘zdan kechirish, nutq odobi tamoyillarini ishlab chiqish, adabiy talaffuz me‘yorlarini belgilab olish, o‘qituvchi nutq madaniyati hamda nutqiy mahorat kabi masalalar tilshunoslar e‘tiborini jalb qildi. Tilshunos olim O‘.Islamov o‘zining “O‘zbek nutqi madaniyatining tarixiy ildizlari va shakllanishi” nomli doktorlik dissertatsiyasida nutq madaniyati fanining shakllanishi va taraqqiy topishida o‘zbek tilshunos olimlarining hissasini ixcham tarzda shunday tavsiflaydi.

“O‘zbek tilshunosligida “Nutq madaniyati asoslari” kursining dasturi ilk bor R.Qo‘ng‘urov, keyinchalik N.Mahmudov va A.Shermatov, E.Begmatov va Y.Tojievlar tomonidan ham tuzilgan. Dasturlarda nutq madaniyati va notiqlikning o‘zaro munosabati va farqlari aytilgan bo‘lib, bu ikki sohaning paydo bo‘lishi va rivojlanish tarixi, nutq madaniyati tushunchasi, nutq madaniyatining asosi o‘zbek adabiy tili ekanligi qayd qilingan.[1] Mualliflar tomonidan nutqning to‘g‘riligi, aniqligi, tozaligi, boyligi, ifodaliligi, tushunariligi, qisqaligi, maqsadga muvofiqligi, mantiqiyligi, obrazliligi, ta’sirchanligi, nutq madaniyatini egallash yo‘llari va usullari ko‘rsatilgan. Samarqandlik tilshunoslar R.Qo‘ng‘urov, S.Karimov va T.Qurbonovlar ham ikki qismdan iborat “Nutq madaniyati” risolasini yozishdi. Nutq



madaniyati mavzuiga bag‘ishlab tuzilgan dasturlarni kuzatar ekanmiz, ba’zi holda “Nutq madaniyati”, “Nutq madaniyati va uslubi asoslari”, “Notiqlik san’ati asoslari” kabi sarlavhalar ostida tuzilganini ko‘ramiz. R.Qo‘ng‘urov, S.Karimov, T.Qurbonovlar tuzgan “Nutq madaniyati asoslari” risolasining ikkinchi qismida nutq madaniyati sohasi bilan stilistika sohalari o‘rtasidagi munosabat, nutq va nutq madaniyatining til stillari sistemasi bilan yaqin aloqadorligi, bu usulning o‘ziga xos og‘zaki va yozma me‘yorlari mavjudligi, mana shu me‘yorlar har bir uslubning to‘g‘riligi va lisoniy madaniyatini belgilashi haqida fikr yuritiladi”. [2]

N.Mahmudovning nutq madaniyatiga qo‘shgan hissasi madaniy nutq kommunikativ sifatlarining tavsiflanishida yorqin namoyon bo‘ladi.

N.Mahmudov o‘sha davrda tilshunoslar o‘rtasida keng muhokamalarga sabab bo‘lgan “til madaniyati” va “nutq madaniyati” atamalarining to‘g‘ri farqlanmagan holda qo‘llanilayotganligi masalasiga e‘tibor berib, ularning turli tushunchalarni anglatishini ta’kidlaydi va quyidagicha fikr bildiradi: “Nutq madaniyati esa tildan bemaolol, maqsadga o‘ta muvofiq va ta’sirchan bir tarzda foydalana olishni ta’minlaydigan ko‘nikma, malaka va bilimlarning jami demakdir. Boshqacha aytganda, nutq madaniyati tilda potensial mavjud bo‘lgan xilma-xil ifoda shakllaridan fikr uchun eng uyg‘unlarini tanlay bilish va shu asosda raso nutq tuza olish mahoratidir” [3].

Nutq madaniyatining asosiy o‘rganish ob‘yektini ma’lumki, adabiy me‘yorlar masalasi tashkil qiladi. Shu o‘rinda Nizomiddin Mahmudovning ushbu fikrlari diqqatga sazovor: “Nutqning to‘g‘riligi nutq madaniyati haqidagi ta’limotning markaziy masalasidir. Madaniy nutqning boshqa barcha kommunikativ sifatleri ayni shu to‘g‘rilik mavjud bo‘lgandagina yuzaga kela oladi. Zotan, to‘g‘ri bo‘lmagan nutqning aniq yoki mantiqiyliigi, ifodaliligi yoki boyligi haqida gapirish mumkin emas. Aytish joizki, nutqning to‘g‘riligi boshqa barcha kommunikativ sifatlarining poydevori vazifasini bajaradi. Shuning uchun ham nutqning to‘g‘riligi nutq madaniyatining birinchi bosqichi bo‘lib, maktab ona tili ta’limining asosiy maqsadi ham o‘quvchilarda aynan to‘g‘ri nutq tuzish ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga qaratilgan. To‘g‘rilik sifati nutq tarkibi va qurilishining amaldagi adabiy til me‘yorlariga to‘la mosligi asosida yuzaga keladi. Adabiy til me‘yorlariga amal qilinmasdan tuzilgan nutq to‘g‘ri nutq bo‘la olmaydi”.

N.Mahmudovning “O‘qituvchi nutq madaniyati” nomli darsligida nutqning kommunikativ sifatleri tugal tavsiflangan. Boshqa darslik va o‘quv qo‘llanmalarda shunchaki sanab o‘tilgan kommunikativ sifatlar N.Mahmudovni qoniqtirmaydi va har birini qiziqarli misollar va qo‘shimcha izohlar bilan boyitadi. Masalan, o‘qituvchi nutq texnikasi bilan bog‘liq qismida shunday bir hikoyatni keltiradiki, bu hikoyat uni o‘qigan talabaning yodida uzoq vaqt saqlanib qoladi. Unda nutqning kommunikativ sifatlaridan biri va eng muhimi hisoblangan nutqdagi ovoz texnikasi bilan bog‘liq masala tilga olinadi: “XIII asr Sharqining ulkan adibi Shayx Sa’diy Sheroziyning mashhur “Guliston” asarida shunday bir hikoyat bor: “Sanjariya masjidida bir kishi rag‘bat bilan azon aytar erdi, bir ovozi bilanki, eshitganlar andin nafrat etardilar. Masjidning sohibi bir amir erdi, odil va xushxulqlik. Xohlamas erdiki, aning ko‘nglini



mukaddar aylasa, aydi: “Ey javonmard, bu masjidning qadimgi muazzinlari borki, har birining besh tillo vazifasi bordur. Senga o‘n tillo beramen, tokim bo‘lak mahallaga ketarsen”. Bu so‘zg‘a ittifoq ayladilar va muazzin ketdi. Bir muddatdin so‘ngra amirning huzuriga qaytib keldi va aydi: “Ey amir, menga zulmu sitam ayladingki, o‘n tillo bilan meni bu mahalladin jo‘natding. Ul mahallaki, men bordim, menga yigirma tillo berdilarki, bo‘lak mahallaga ketsam qabul etayurmen”. Amir kuldi va aydi: “Aslo olmag‘aysen, zeroiki ellik tillog‘a ham rozi bo‘lurlar”. Yoqimsiz ovoz kishilarni o‘ziga jalb qilmaydi, chaqirmaydigina emas, balki bunday ovozdan barcha qochadi, hamma vaqt har kim undan qutulmoq payidan bo‘ladi.

Darhaqiqat ovoz ustida ishlash o‘qituvchi nutqining muhim masalalaridan hisoblanadi. Ovozi mayin, yoqimli va so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qiladigan o‘qituvchi nutqi o‘quvchilarni fanga qulay olib kiradi. O‘quvchilar darsdan zerikmaydi va mavzuni berilib tinglashadi. Shuning uchun olim nutq texnikasi haqida gapirganda ovoz ustida ishlash masalasiga jiddiy e‘tibor qaratadi. Jumladan, olimning quyidagi fikri o‘qituvchi o‘zining nutq texnikasini takomillashtirish borasida doimiy qayg‘urishi haqidadir: “Notiq, xususan, o‘qituvchi o‘zining nutq texnikasini takomillashtirish borasida doimiy qayg‘urishi, tilning tovush qurilishi bilan bog‘liq bilimlardan umumiy tarzda bo‘lsa-da, xabardor bo‘lishi, kerak bo‘lganda, o‘z nutqidagi nuqsonlarni bartaraf etishga yordam beradigan mashqlardan muttasil foydalanib borishi maqsadga muvofiq. Chunki tugal nutq texnikasisiz o‘qituvchining, har bir nutq tuzuvchining og‘zaki nutqi madaniyatini aslo raso deb bo‘lmaydi”. [4]

Nutq madaniyati fanida nutqning bir qancha kommunikativ sifati tilga olinadi. Va bularning bari nutqning go‘zal va ta‘sirchan bo‘lishini ta‘minlash maqsadida o‘qitiladi. Biroq olimning ta‘kidicha “Nutqning aniqligi, mantiqiyligi, ifodaliligi, boyligi, sofligi kabi tilning tirikligi, ta‘sirchanligi va jozibadorligini ta‘min etadigan sifatlar bilan so‘zlovchini, o‘quvchini yaqindan oshno etishga qaratilgan ishlar ona tili ta‘limida uzoq vaqt o‘zining munosib o‘rnini egallamay qolib kelgani achinarlidir. Buning natijasida, grammatik jihatdan to‘g‘ri, ammo ruhsiz, jonsiz, tarovatsiz, shirasiz jumlarlar maqbul nutq namunalari sifatida taqdim etilganki, bular bolalarning so‘z sezgisini o‘stirishga emas, balki o‘ldirishga ko‘maklashgan, oqibatda ona tili darslari bola ko‘ngliga til zavqini olib kirolmay qiynalgan”.

Bu kabi masala, ya‘ni adabiy til mezonlariga moslik madaniy nutqning eng zarur sifatlaridan biri hisoblanadi.

Nutqning kommunikativ sifatleri ichida nutqning jo‘yaliligi aynan N.Mahmudov tomonidan taklif qilingan va asoslab berilgan. Olim bu haqda shunday yozadi. “Agar nutq o‘zida barcha kommunikativ sifatlarni mujassam etsayu, har jihatdan jo‘yali, ya‘ni o‘z o‘rnida bo‘lmasa, u maqsad manziliga borib yetmaydi. Jo‘yalilik yo‘q joyda nutqning boylilik, aniqlik, ifodalilik kabi muhim sifatlarning mohiyati yo‘qoladi”. Olim nutqning jo‘yaliligi tushunchasini rus tilshunosi B.N.Golovin tomonidan izohlangan “umestnost rechi” terminiga muqobil sifatida ishlatadi. Masalan, kimningdir og‘ir kasali yoki vafoti haqida xabar yetkazuvchi fikrni ifodalash uchun tuziladigan nutqda ortiqcha jimjimadorlik, tantanavorlik bo‘lmasligi kerak. Aks holda nutq jo‘yali hisoblanmaydi. Olim nutqning behad muhim sifatlaridan biri bo‘lgan bu masalani ilmiy-nazariy jihatdan asoslab bergan. Hozirgi kunda oliy ta‘limdagi nutq



madaniyati bilan bog‘liq darslarda, ilmiy tadqiqotlarda bu masalaga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Nizomiddin Mahmudov madaniy nutq tarbiyasi jamiyat uchun nechog‘lik muhim ekanligini ta’kidlashdan charchamaydigan olim. Olim bir maqolasida madaniy nutq tuzishning ahamiyatini shunday izohlaydi: “Fikrni ona tilida mustaqil, ravon, go‘zal va lo‘nda ifoda eta olmoq uchun odamda nutqiy madaniyat yetarli darajada shakllanishi kerak. Chunki nutq madaniyati tildan bemaol va maqsadga o‘ta muvofiq tarzda foydalana olishni ta’minlaydigan ko‘nikma, malaka va bilimlarning jami demakdir”. Buning uchun madaniy nutq tarbiyasi oiladan boshlanmog‘i lozim. Maktabda esa barcha fan o‘qituvchilari bunga birdek mas’ul bo‘lmoqliklari shart.

### **XULOSA**

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash o‘rinliki, Nizomiddin Mahmudov o‘zbek tilshunoslari orasida ma’naviyatning targ‘ibotchisi, tashviqotchisi, jonkuyari sifatida ajralib turadi. Olim o‘zbek tilshunosligiga qo‘shgan xissasini benihoyatda kattaligi sababli faqat qisqagina o‘z mulohazalarimizni keltirdik. Bugungi va kelajak avlodlar uchun yaratilgan meroslar uzoq yillar davomida xizmat qiladi. Tilshunos olim bugun hayoti davomida — lisoniy ijodida tilshunoslik bilan ming-minglab fikrlarini bayon etdi. Ana shunday og‘ir, sermashaqqat mehnat natijasida o‘zbek tiliga bag‘ishlangan o‘nlab yirik tadqiqotlar, yuzlab maqolalar maydonga keldi. Olimning keyingi ilmiy faoliyatlarida muvaffaqiyat tilaymiz.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Mahmudov N. O‘qituvchi nutqi madaniyati. – T.Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 2007. – 184 b
2. Mahmudov N. Til. - Toshkent: „Yozuvchi“ nashriyoti, 1998. – 37 b
3. Mahmudov N., Saidqulov Z., Sotimov F. Komillik kaliti. – T. :Ma’naviyat, 1999. – 277 b
4. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab...// O‘zbek tili va adabiyoti. – T., 2012. – B.10.
5. 2. M.Qoshg‘ariy "Devonu lug‘otit turk". Tom. I, II, III, indeks lug‘at Tb 1960-63-67.